

BOJXONA HAMROHLIGIDA KUZATIB BORISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

H.D.Hayitov, bojxona xodimi, Bojxona qo‘mitasi,

email: eco88x88@gmail.com

Xalqaro tashqi savdo va tranzit hajmining ortib borishi bojxona nazorati tizimida samarali hamda xavfsiz kuzatuv va nazorat mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bojxona hamrohligida kuzatib borish tizimi — tovarlarni bojxona hududi bo‘ylab tashish jarayonida ularning harakatini doimiy ravishda monitoring qilish usuli bo‘lib, kontrabanda, qonunbuzarlik holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish hamda uning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona hamrohligida kuzatib borishning huquqiy bazasi mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ushbu tizimning amaldagi samaradorligi va uning zamonaviy xalqaro talablarga mos darajada faoliyat yuritishi borasida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa tizimni yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarni keng joriy etish orqali bojxona nazoratining samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Amaldagi bojxona tartibotlariga muvofiq, bojxona hamrohligida kuzatib borish bojxona nazoratining alohida shakli sifatida faoliyat yuritadi va u odatda, bojxona organi xodimi tomonidan ma’lum bir viloyat hududi doirasida amalga oshiriladi. Tovar va transport vositalari boshqa viloyat hududiga o‘tganda esa, ular belgilangan qabul qilish-topshirish punktlarida tegishli hudud bojxona organi xodimiga rasmiy tarzda topshiriladi.

Biroq amaldagi tartibning ayrim jihatlari tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, bojxona hamrohligida kuzatib borilayotgan avtotransport vositalarini qabul qilish va topshirish punktlarining barchasida bojxona nazorati zonalari to‘liq shakllantirilmagan. Bu esa tovar va transport vositalari ustidan doimiy va samarali bojxona nazoratini amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan

birga, nazorat zonalarining yetarlicha jihozlanmaganligi, axborot almashinuvi jarayonlarining markazlashtirilmaganligi hamda kuzatuv tizimlarining avtomatlashtirish darajasi pastligi kabi omillar bojxona hamrohligi tizimining zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bojxona hamrohligi tizimini modernizatsiya qilish, uning hududlararo integratsiyasini ta'minlash va elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida yagona avtomatlashtirilgan kuzatuv platformasini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda axborot tizimlarining mobil ilovalarini ishlab chiqishga hamda hujjatlarni rasmiylashtiruv jarayonida maxsus planshet moslamalaridan foydalanishga ehtiyoj mavjud. Bu nafaqat bojxona nazoratining samaradorligini oshiradi, balki inson omili ta'sirini kamaytiradi, logistika jarayonlarini tezlashtiradi va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Bojxona hamrohligida kuzatib borilgan transport vositalari sonini 2018-2024-yillar kesimida tahlil qilsak, 398 ming 818 ta transport vositalarini tashkil qiladi (1-rasm).

1-rasm Bojxona hamkorligida amalga oshirilgan kuzatuvlar soni

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi tartibotlar asosida bir transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish muddati bosib o'tiladigan masofaga qarab, o'rtacha 1 kundan 4 kungacha bo'lgan davrni tashkil etmoqda. Bu holat, ayniqsa, xalqaro tranzit tashuvlarini amalga oshirishda vaqt va resurslar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holat natijasida logistika jarayonlarining uzoqlashishi, transport vositalari harakatining cheklanishi hamda umumiy tashish siklining kechikishi kuzatiladi. Bu, o'z navbatida, tashish xarajatlarining ortishiga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun moliyaviy yukning oshib borishiga va tashqi savdo jarayonlarida noqulayliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali xalqaro yuklarning tranziti hajmining ortishi va tashqi iqtisodiy faoliyat ko'lamining kengayishi natijasida

bojxona hamrohligida kuzatuvni tashkil etish jarayonida qo‘shimcha inson, moddiy va texnik resurslar talab etilmoqda. Bu esa mavjud tizimning samaradorligiga va nazorat jarayonlarining tezkorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil

31-yanvardagi 55-sonli qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida bitta avtotransport vositasini quyidagi masofalarga bojxona hamrohligida kuzatib borganlik uchun:

200 km masofagacha BHMning 2 baravari (824 ming so‘m)

200 km dan ortiq masofagacha BHMning 5 baravari (2 ln 60 ming so‘m) etib belgilangan.

Shu munosabat bilan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ayniqsa axborot tizimlari orqali tovar va transport vositalari harakatini avtomatlashtirilgan tarzda kuzatish amaliyotini yo‘lga qo‘yish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, elektron plombalarni qo‘llagan holda kuzatib borish tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni jonlantirish lozim. Mazkur tizimning joriy etilishi orqali kuzatuv uchun xarajatlarning kamayishiga, tovar va transport vositalarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoni bo‘lishiga, tadbirkorlar va tashuvchilarning vaqti va mablag‘i tejalishiga hamda avtomobil yo‘llaridagi tirbandliklar kamayishiga erishiladi.

Elektron plombalardan foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar, xususan, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar tajribasi o‘rganildi. Jumladan:

Rossiya Federatsiyasida

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2019-yil 24-iyundagi

290-sonli qaroriga asosan ayrim turdagi tovarlarning xalqaro tranzitida va cheklov o‘rnatilgan (sanksiya) tovarlar ortilgan transport vositalariga elektron plombalarni pullik xizmat ko‘rsatish asosida qo‘llanilishi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan elektron plombalarni qo‘llagan holda xalqaro avtomobil transporti kuzatuv tizimining milliy operatori etib “Raqqamli platformalarni rivojlantirish markazi” belgilangan.

Ushbu milliy operator tomonidan elektron plombalardan bir marotaba foydalanish (oʻrnatish, kuzatish va yechib olish) uchun belgilangan tarif

15 357,60 rublni (186,81 AQSH doll.) tashkil etadi.

Qozogʻiston Respublikasida

Qozogʻiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil

28-apreldagi 407-sonli buyrugʻiga asosan, transport vositalariga nisbatan elektron plombalarni qoʻllagan holda bojxona kuzatuvini amalga oshirish qoidalari belgilangan.

Qozogʻiston Respublikasi hukumati tomonidan elektron plombalarni qoʻllagan holda xalqaro avtomobil transporti kuzatuv tizimining milliy operatori etib “Milliy kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar markazi” AJ belgilangan.

Ushbu milliy operator tomonidan elektron plombalardan bir marotaba foydalanish (oʻrnatish, kuzatish va yechib olish) uchun belgilangan tarif

107 702 tengeni (209,14 AQSH doll.) tashkil etadi.

Belarus Respublikasida Vazirlar Kengashining 2020-yil

25-maydagi 311-son qaroriga asosan, elektron plombalarni qoʻllash tartibi belgilangan.

Belarus Respublikasi hukumati tomonidan elektron plombalarni qoʻllagan holda xalqaro avtomobil transporti kuzatuv tizimining milliy operatori etib “Beltamojservis” tashkiloti belgilangan.

Ushbu milliy operator tomonidan elektron plombalardan bir marotaba foydalanish (oʻrnatish, kuzatish va yechib olish) uchun belgilangan tarif bazaviy miqdorning 19 baravarini — 798 rublni (242,98 AQSH doll.) tashkil etadi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki elektron plombalar yordamida kuzatuv tizimini joriy etish bojxona nazoratini masofadan turib amalga oshirish, inson omilining taʼsirini kamaytirish hamda kontrabanda va noqonuniy faoliyat holatlarini barvaqt aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, elektron plombalar asosidagi kuzatuv tizimi mamlakatning transport-tranzit salohiyatini oshirish, xalqaro logistika zanjirlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish va bojxona xizmatlarini raqamlashtirish yoʻlidagi

muhim qadam hisoblanadi. Ushbu tizimni joriy etish orqali nafaqat nazorat samaradorligi, balki tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun vaqt va xarajat jihatidan qulaylik darajasi ham sezilarli ravishda oshishi mumkin.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida tashqi savdo yuklarini bojxona nazorati ostida tashishni soddalashtirish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 800-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 55-son qarori
4. Постановление Правительства РФ от 11.09.2018 N 1082 "О ставках и базе для исчисления таможенных сборов за таможенное сопровождение и хранение" https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_306628/
5. Постановление Правительства Республики Казахстан от 5 апреля 2018 года № 171 "Об утверждении ставок таможенных сборов, взимаемых органами государственных доходов" https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38773663&pos=5;-116#pos=5;-116